

821
Ch-98

CHOLPON

BULOQLAR
QUCHOG'IDA

SHERLAR

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

ООО «Иркутская городская типография» Зак. 4/77-4000

821
ch-98

O'zbekiston Respublikasi
Mustaqilligiga bag'ishlanadi



Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na farqoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'rirtmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Triksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan,
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!..

0455 0455

0455-
0202

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MARKAZI
0455

IN CONGIUNZIONE NOTTE E GIORNO
DEI DINTAVI BULAT SUKKAN ATPO AV VILO
QUICHMUTAYO ALIV INBARGOT
PURTALAI ANICHO-OLIA TALVAG
TAMMAM SUREPPA TOGAPPA

GO'ZAL

Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal, Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zall...»

Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.

Oqqa ko 'milganda shunchalar go 'zal,
Mendan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zall...»

Erta tong shamoli sochlarin yozib,
Yonimdan o'lganda so'rab ko'ramen.
Aytadur: «Bir ko'rib, yo'limdan o'zib,
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni: shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldur, kundan-da go'zall...»

U'l ketgach kum chqar yorug'liq sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.
U'l-da uyatidan berkinib, qochib,
Aytadir: «Bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.

Men o'ngda ko'riganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir... mendan-da go'zall...

Men yo'qsil na bo'lib uni suyubmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.
Boshimni zo'r ishga berib go'yubmen,
Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?

Men suygana «suyukli» shunchalar go'zal
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zall!!!

1919



QALANDAR ISHQI

(Eski tartibda)

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'iqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay, gulochini katta otdim-ku.

Ajab dunyo ekan, bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,
Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Uning gulzorida bulbul o'qub qon ayladi bag'rim,
Ko'zindan yoshini jo' aylab, alamlar ichra botdim-ku.

Qalandardek yurib dunyoni kezdin, topmayin yorni,
Yana kulbanga qayg'ular, alamlar birla qaytdim-ku.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qiolmay yerga botdim-ku.

1920



YONG'IN

«Talamagan, yiqilmagan yer yo'q,
Co'daklar nayza boshida...»

(Xabar)

Nega mening qulog'imda tun va kun
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?
Nega mening borlig'imga har o'yun
Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?

Ko'nglim kabi yiqiq ular, qishloqlar,
Boyqushlarga buzuv ko'ksin ochganmi?
Ota-ona, tanish-bilish, o'rtoqlar
Yurtni tashlab, tog'u toshga qochganmi?

Shunday katta bir o'lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talamagan uy yo'qmi?
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?

Podalarning yaylovda bo'rilar,
Qonga to'ygach, uvlaylarni ko'plashib?
Yiqiqlardan o'liklarni to'plashib,
O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?

Tabiatning butun yomon tomoni
Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?
Mo'minlarning oq vijdoni, imoni,
Sham so'nganday tinsizgina so'ndimi?

Qilichlarning tillarida qizil qon
Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?
Yalang bola, yalang go'dak, ma'sum jon
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?

Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi?
«Madaniyat»¹ istagiga qondimi?

1921

¹ «Madaniyat» — foitih Ovrupo.

XALQ

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...

Xalq qo'zg'olsa kuch yo'qdurkim, to'xtatsum,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsun.

Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi.

Xalq istagi ozod bo'lsin bu o'lka,
Ketsun uning boshidagi ko'lanka,

Bir qo'zg'olur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar,

Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,
O'z yurtini har narsaga to'q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

1921



SUYGAN CHOQLARDA

Go'zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko'zlarimga o'qidim;
O'qidim-da, istiqbolim qushiga
Xayolimdan oltin qafas to'qidim.

Gunafshalar qulog'imga madlingni
So'zlab-so'zlab charchadilar, bitmadi...
Alamzada bulbul yig'lab kechalalar,
Alamingning so'ngin tamom etmadi.

Ko'zingdagi hikoyaning mazmunin
Shoir bo'lsam aytib-aytib yig'lardim;
O'shal eski jarohatli qalbinni
Satrlarning nashlari-la tig'lardim.

Xayolimning qir-qizildan kiyingan
Parilari, hurrlarini ko'rdingmi?
Alamindan gullar ekan yo'llardan
Ko'ngotga hayot sochib yurdingmi?

Yo'llaringda «shitir» etsa so'lgan barg,
Qulog'imga musiqalar keltirur;
Qachon sening musiqali ovozing
Sening meni «suyganim»ni bildirur?..

1921

UYQU

«Bomayman dedi» kuyiga

Jim turing, shovqinlamang, uyqu ichinda ul pari,
Y urnma, tek tur, ey shamol, yursang-da yur biroz nari.
Ko'kda bir to'p qiz-malak uyqu kuyini boshladi,
Ilgari chalgan tirik, jonli kuyini tashladi.

Bosh uchida aylanar bir to'p farishta jimgina,
Ko'k elining tangrisi — oy ham qaraydir tinchgina.

Ul olos ko'zlar yumulgan... kuyini yondirgachgina,
Ko'p go'zal ko'zlarini yumdirgach, uyaldirgachgina...

Charchagan, tolgan, umidsiz ko'zlarini to'ymay qarat,
Har qarashda ko'nglima ming turli o'ylarni solar...

Bu yotish, bu uyqu, bu qanday shirin, qanday go'zal,
Jonlanar, yuz ko'rsatar singan va yasangan amal.

U yotish, uyqu na yerda, na xayoliy ko'kda bor,
Bu go'zal, sirli tomosha menda, men o'ksukda bor.

Jim turing. Shovqinlamang, uyqu ichinda ul pari,
Ko'zlarini to'ymay qarat, borliq ko'nglima, tur nari...

1921

BINAFSHA

Yoz qayg'isi

Binafsha senmisan, binafsha senmi —
Ko'chada aqchaga sotilgan?
Binafsha menmami, binafsha menmi —
Sevgingga, qayg'ingga tutilgan?

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho'zilding?

Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir ularkim,
Ilgani bag'ringga sanchalar?

Binafsha,
Bir so'yla,
U qanday go'llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar?

Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Ko'nglimga usriklik to'knaysan?
Nimaga uzozroq kulmayсан?

Usrik — kayf.

Binafsa, shunchalar tortguvchi tusing bor,
 Binafsa, yig'lama, binafsa, kel beri,
 Qayg'ungni qayg'unga qo'shg'il!
 Binafsa, sening-chun ko'kragim erk yeri,
 Bu yerdan ko'klarga uchg'il!

Binafsa, go'zolim, qayg'olim, kelmaysan,
 Qayg'ing zo'r, qayg'imni bilmaysan,
 Menga bir kulmaysan!

1922



VIJDON ERKI

(Tutqunlarga)

Ay tutqunlar... ay ezilgan,
 Ay qiyналgan yo'qsul ellar,
 Ay umidsiz, ay chizilgan
 Dor oldiga... oppoq dillari!
 Ay bevalar, bechoralar,
 Ay bog'langan kishanlarga,
 Ay erk uchun ovoralar,
 Ko'p yalimang siz unlargal!
 Bo'rilardan omon kutmak —
 Tentaklarning ishidir ul;
 Har mone'ni hallab o'tmak —
 Turmushda eng to'g'ri bir yo'll!
 Zulm oldida har bir narsa,
 Ehtimolki, bo'yin egar.
 Agar zulm avyiga kelsa
 Ko'k boshi-da yerga tegar.
 Hayvonlarga, insonlarga
 Zolim ega bo'lmay qolmas,
 Faqat erkin vijdonlarga
 Ega bo'lmog' mumkin emas!..

1922



KISHAN

Kishan, g'avdamdagi izlar, bugun ham bitgani yo'qdir!
Te mir barmoqlarining dog'i, butkul ketgani yo'qdir!

Na mudhish, na sovuq — manxus,

na qizg'onmas quchog'ing bor!

Bashar tarixining har sahfasida gonli dog'ing bor!

Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar,
Faqat, bir borlig'ingdurkim, butun borlig'ni zahr aylar!

Qilich birlan sening erkingda

ko'p yillar qolib ketdim...

Faqat, har tebranishdan qutulishini umid etdim.

Kishan, g'avdamdagi dog'ing hanuz ham

bitgani yo'qdir,

Faqat, butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

1922

16

«D»ni «id»ga aylantirib, qaltiqroq cho'zib o'qinmoq lozim («sahlasida» kabi).
Yo'qsa, aruz vaznida yozilgan bu parchaning vazni buziladi. Bu parchada, shunga
o'xshagan joylar yana birinchi bor. Umuman, aruz vaznida yozilgan parchalarda
shu qoida kuzatilmag'i kerak.

SENDAN YIROQDA...

Yiroqlashdim, uzozlashdim bir necha kun sendan,
hol so'rab ko'r mendan:

Nega muncha og'ir keldi bu yiroqlik menga —
anglatayin senga!

Chunki sening qarshingda men ayrilgini o'ylamay,
ko'zlarimga tikildim,

O'zligimga, borligimga baho qo'ymay, sonlamay
yerga qadar egildim.

U ko'zlarining toshqinida baliq kabi suzgan men,
ayrilgini o'ylaymi?

Boshqa dunyo, boshqa o'ydan bog'lanishni uzgan men,
senga qarab to'ylaymi?

Mana endi bir necha kun sendan yiroq qoldim-da,
qayg'ularga ko'mildim.

Ayрилqda — qayg'u ichra ulushimni oldim-da,
ko'zlarimga xo'p bildim!

Endi senga ko'ngil dardim butkul ochib beraymi,
istaysanmi sen uni?

Islamasang, qistamayman... oldin seni ko'raymi,
so'ng aytaymi men uni?

Yaxshi... Endi qanotimni roslayin,
Uchib borib oldin seni topayin,

so'ng dardimni ochayin!..

17

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
TADRIKENT VIAXSUS TILIM VAZIRLIGI
DAVIAY PEDAGOGIKA INSTITUTI
1922
AMBOKROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
TADRIKENT VIAXSUS TILIM VAZIRLIGI
DAVIAY PEDAGOGIKA INSTITUTI
AMBOKROT RESURS MARKAZI

YUPANMOQ ISTAGI

Bilmadim, ko'nglimni yupatgay kimlar:
Bog'larmi, toshlarni yo oqar suvlar,
Yoki kishanlardan bo'shalgan qullar,
Yoki sevilmasdan tashlangan tullar?

Yoki oydim tunda ko'zimni olmay,
Ko'klardan yupatqich yulduz axtaray?
Yoki tong chog'ida «sabo» yupatgay,
Yoki oydan tongan vafosiz nurlar?

Yoki ko'z yoshidan yig'ilgan bir ko'l
Bo'yida egilgan tolda bir bulbul
Sayrasa, yig'lasa; ma'shugasi gul
Kulganda yupatgay ko'ldagi hurlar?

Charchagan yo'lovchi yo'ldan adashsa,
Tekis, yo'l qolsa-da, tog'larni oshsa,
Yo'lni ko'rsatkuchi yulduz-da qochsa,
Shunda, yupatgaymi yalang'och cho'llar?

Erkin dalalarning erkin sultoni,
Sonsiz podalarning yolg'iz cho'poni,
Nay choilib, tog'lardan istasa yorni,
Balki yupatgusi «yor» degan kuylar?

Turmushta, xayolda... har bir narsada
Yolg'iz aldanishni ko'rgan bir banda
Borliqqa qarag'ishlar yog'dirgan tunda
Balki yupatgusi u achchiq so'zlar?

Dengizlar qaynasa, toshsa suvlari,
Kesilsa yo'lchining istak yo'llari,
Dengizga aylansa o'ng va so'llari,
Balki yupatgusi ho'llangan ko'zlar?

Ko'ngilda uyg'onsa yengil havaslar,
Uzilsa, buzilsa olin qafaslar,
Birga ichishsalar bir to'da mastlar,
Balki yupatgaylar o'ynog'i qizlar?

O'ylangan o'ylar-la ko'ngil yupanmas,
Ko'ngilning istagi o'y bilan qonmas.
Aytalar, bu tunda yorug'sham yonmas,
Chaqnasa gugurtini asl o'g'ullar...

1922

QISH OLDIDA

Ko'klam ketidan yozni uzaldik, u-da ketdi, Kuzning-da bulutlik, gora davri kelib o'tdi.

Barglar yana sarg'aydi, to'kildi... yana bo'shliq...
Qushlar yana to'p-to'p qochalar... qarg'a faqat shodl
Har narsada bir qayg'i, kadar, rangi so'lishlik...
Ichdangina, tinsizgina har narsada bir «dod»...

Dunyo yaratilganda xunuk, chirkın emish-da, Ko'klam bila yoz unga kiyimlar kiygizarmish. Kuz hech ko'ra olmas, ichi tor, qizg'in emish-da, Har narsani so'ldiruvchi qo'lini tegizarmish.

Kuz davrida, dunyo — kiyimi qolmas emish-da,
Qish chog'ida unga qaramoqliq-da yomonmish.
Bir qarg'a, faqat, ko'zlarini olmas emish-da,
Qarg'a, shu uchun — qisida kuyarmish-da, yonarmish....

Holbuki, na kuzdan va na qishdan yuz o'g'irmay,
Har qaysidan ko'nglim uchun topdim o'yinlar;
Yozlar kabi qishlarda-da g'am rangini ko'lmay,
O'lmakda quyosh qo'yinida kunlar kabi tunlar!

Dunyo kiyimi yirtiq esa qayg'i kerakmas,
Kunning birta yerga tushar paxta kabi qor.

Dunyoy taniqa qor kiyimi nega kelishmas?

Oglik ichida qop-qora ko'z... o't kabi chagnati

Ko'klam kabi qishning-da go'zal gullari bordir,
Yozlar kabi, qishlarda-da oltun kechalar bor.

Ko'klam kabi qishning-da go'zal turlari bordir.
Qishlarda-da yozlar kabi jon — mug'bachalar bori.

Ko'klam-da ketib, yoz-da biitb, kuz-da tugaldi:
Ay qishbobo, chiq o'rtaga, navbat senga keldi!..

1923

YANA ZARAFSHON

Fil minib, o't yiqib o'tib ketdim
Yana ustingdan, ey cho'zuq daryo!
Yana qirg'oqlariga his sepdim.
Munga sen berma boshqa xil ma'no:

Hisni qirg'oqlariga sepmaklik
Menda bir eski, tentak odatdir.
Yosh to'lib tuprog'ingni o'pmaklik
Keng xayolinda bir saodatdir.

To't yog'ing ko'm-ko'k
o't va maysa ekan,
Quehog'im shu qadar ochildiki, men
Tanlarimga botib ketibdi tikan
Seznamdim, «gul» dedim... yo'qolding sen
Ko'zlarim oldidan... qarab qoldim,
Yana yo'llarga och nazar soldim.

Boy tabiat butun go'zalligini,
Bilaman, ko'kragingdan olgandir;
Boy tala, maqtanuvchi «men»ligini
Yashnatib, ko'ksingga qadalgandir.

Shu go'zal chehralarga suv emizib
Buralib, aylanib oqib yotasan;

Shu qadar jonlarga yem yegizib
Qora dashtlar tomon chopib yotasan.

Shu go'zal chehralar kulib yotsin;
Qora dashtlar tomon chopib oqaber!
Tovushing yo'qsul elni uyg'otsin,
Kuchli, loy suvlarig bilan birga
U o'lim, uyqusi oqib bitsin!

Yana bir qalta hurmatim senga...

1923



Ushbu...
Zarafshon...
1923...
Ko'zlarim oldidan...
Seznamdim...
Yana yo'llarga...

KECH KIRISH

Baland-pastlik, katta-kichik binolar;
Qizil, ko'm-ko'k, yashil tomlar ustida,
Ola-bula, quyug-suyug bulutlar...
Ko'kni qoplab bir tomonda to'plangan!
Kun botadir... targov, yoyiq lolalar,
Unda-munda bulutlarning yuzida
Sil yuzidek rangi ketib so'liblar...
Qorong'ilik Sharq tomondan qo'zg'algan!
Shom azoni... muazzinning yo'sunsiz,
Kuchsiz tovshi titrabgina cho'zilgan...
Yomg'ir picha yog'ib o'tgan; buzilgan —
Qing'ir ko'cha chetidagi uzun iz...
Qismat izlab har tomonga tarqalgan
Katta-kichik, yoshu qari bo'shashib,
Horib, charchab, sekingina qaytadir.
Mahallaning bir yeriga to'plangan
Bir to'p bola turluk o'yin o'ynashib,
ketganlarni kutadir...

Belgisizlik qanotini keng yoyib,
Koinotni quchoq'iga tortadir.
Chiroqlar ham «jin ko'zidek yitillab» —
Xira qarab, mungg'ayib
Ko'rindilar.
Kilkillab —
Yomg'ir suvi yer bag'rida yitadir...
1923

MEN SHOIRMIP?

(«Tarjimai holim»ga)

Xayolim bir uchib ketib qoladir,
Men ham tizginini qo'yib beraman.
Zotan, qandog qilib tutib turaman? —
Eng nozik qilinga tegib qoladir.
Uchadir... uchadir... ming qavat ko'kni,
Bir boshdan siypalab o'ta beradir.
Zerikmay, erimay keta beradir,
Ba'zan hovliqirib jinni yurakni...

Ko'lanka kabitir; o'tgan yeridan,
So'ngra qarasangiz bir nishon qolmas.
Yurgan yerlaridan oziq ham olmas.
Shunda zerikaman uning sayridan...
Bir zamon bir shirin joyga yetganda,
Nariga o'tmasdan to'xtab qoladir;
Oshiqdak yastanib, yotib oladir...
Shu choqda qiyinalish boshlanar menda.

Chunki, xayolimning ko'zlari bilan,
Bir go'zal holatni ko'rib turaman;
Lazzatga g'arq bo'lib, o'lib turaman.
U holni borliqning so'zlari bilan —

Anglatish, qo'limdan kelmay qoladir,
Shu choqda tillarim kaldirab ketib,
Borlig'im — yo'qlikka g'aldirab ketib
Deymanki: «Boshqalar bilmay qoladir —

Shunday go'zallikni! Altang, agar men
Rassom bo'lsam edi, chizib berardim,
O'xshash nusxa bilan, yozib berardim,
Shu o'jiz holimda, shoirmanni men?..»

Shoirlik, menda bir soyami deyman,
Har bir tushunchamni yoza olmagachi!
Rassomdek xayolni chiza olmagachi!
Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman...

Xayolim yuksakdan tushib ketadir,
Shoirlik chang bo'lib, uchib ketadir...

1923



QUSHNING HADIGI

1

Qush bechora qo'rqadurkim, uyasidan ayirgaylar,
Uyasidan ayirmoq-la qanotini gavyirgaylar.
Mayda simdan silliq qilib, mohirona to'qilgan bir
Qalas topib, darchasini ochib derlar:

«Maskanga kirit!»

2

Miskin qush ham yangi maskan
«chekkasi»ga qo'nib olar,
Maskaniga ko'z yugurtar, tegrasiga nazar solar.

Va ko'rurkim, maskan o'zi mashinada quyilmishdir,
Uni hozir qilmoq uchun ko'p zehniyat sarf bo'lmishdir.

Darchalari mahkamgina, puxtagina, xotirjamlik,
Suv ichgali, don yegali teshiklar bor kichik-kichik...

3

Simlar bilan ishi yo'qdir, chiqmoq uchun uchib ko'rar,
O'rmonlarning xayolida har tomonga o'zni urar.
Tomni teshib chiqmoq uchun
shiplarga ham ko'p yalinar,
Unday qilib bir intilar, —
munday qilib bir intilar.

4

Faqat, zaif vujudini qancha ursin devorlarga,
Balki, uning yumshoq tani, to'lib ketsin ol qonlarga,
Devorlarning sezgisi yo'q,

Tegara butun ruhsiz gvarda:
«Nechun mundaq bo'ldik?» demas.

5

Uning butun tasallisi: to'lib-toshib sayramoqdir,
Ko'm-ko'k tala-o'rmonlarni eslab-eslab yig'lamoqdir,
Yig'lamoqdir!..

1924



...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

SUHBAT

So'lash:

Nega yer qo'yniga tushib qolding.
Yuksak o'rningdan, ey go'zal yaproq?
Nega och bag'rini quchib qolding?
Seni tez so'ldirib, ko'mar tuproq!

Qaytarish:

Sog'inib yerni bag'riga tushdim,
Yuksak o'rningdan, ey ziyrak tutqun!
Kuchli sevgim bilan o'pib — quchdim,
So'ldirib bu kun, undirar bir kun!

1924



...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

...shunda odam o'zini his qiladi, o'zini his qiladi, o'zini his qiladi...

BULOQLAR QUCHOG'IDA

Chimkentga

Ey, ko'nglimda shon aralash uyat biroz goldingan,
 buloqlarning quchog'i!
 Kimlar-kimlar, ko'kragingga dovul kabi soldingan,
 ey tuzalish o'chog'i!
 Men bag'ringga shifo istab kelgan og'riq bo'lsam-da,
 boshqa narsa izlayman.
 U narsani topmag'uncha charchasam-da, tolsam-da,
 ko'kragingda kezarmen...
 Men izlagan eski izlar, bilmadimki, qolgaymi,
 yoki o'chib ketganlar?
 Sahfalarida o'runchashgan kitobalar yolg'onmi
 yo silinib bitganlar?
 Tarix uchun yozdirlagan kitobalar o'chmaslar
 o'chmaguncha koinot
 Tarix bilan o'rnatilgan haykallar ham ko'chmaslar
 ko'chmaguncha mumkinot!
 Tarix uchun o'rnatilgan haykallarni ko'rsam men
 shu shifolik siyongda,
 Meni emas, yana boshqa bir haykalni ko'rgaysan
 adir yo'li — zinangda!...

1924

ISTASH

Ko'nglinga yaqin narsani izlab kecha-kunduz
 Har yoqqa qarayman.
 Tong vaqtida nur to'kkuvchi yolg'izgina yulduz
 Aytarki: «U menman!»
 Men unga ishonmoqchi bo'lib o'ynataman ko'z,
 U ham kula boshlar.
 Shul choqda devorlar ichidan qayg'uli bir qiz
 Yig'lab kela boshlar.
 U munda, yovuqda, shu uchun tez burilib men:
 «Hoy yer qizil!» deyman,
 Ko'nglinga yaqin yulduz emas, boshqa emas, sen,
 «Yer yulduzi» deyman.
 Bu so'zni eshitgach qochadir ko'kdagi yulduz,
 Albatta, arazlab,
 Ham jim bo'ladir yerdagi bechora, g'arib qiz,
 Go'r og'zini izlab.
 Ko'k yulduzi izziz edi, yer yulduzi kuchsiz,
 Har ikkisi ketdi.
 Ko'nglimda yaqin narsani izlab kecha-kunduz
 Oy-yillarim o'tdi...

1924

SHAFTOLIGA

O'n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek
Qir-qizargan yuzlarigandan bir o'pich ber, shaftoli!
Senga qarab turganida — bir ozgina bo'lsa ham —
Bo'lmas kabi, yo'q kabidir... umidimning zavoli!

Umidimning zavoliga qon yig'lagan ko'zlarim
Yoshlarini yuzlariga tomchi-tomchi to'kdimi?
Yoki sevgi armonida shahid bo'lgan yigining
Yesir ruhi qoni bilan lablarigandan o'pdimi?

Mayli sevgan oshiqqlaring yuzlariga to'ymasun,
Lekin, raqib lablariga lablarini qo'ymasun!...

Zaharini quyymasun!...

1924

BAHORDA

(Talabalarga)

Bahor keldi, tabiatning qo'llari
Daraxtlarga ipak ko'ylak kiygizdi.
Yer ham so'lgan ko'katlarni tirgizdi,
Yashillashdi dalalarning yo'llari.

Tut tagida qaynab yotgan choydushcha
Chaqiradir ishlab yotgan dehqonni.
Bir chekkaga tashlab qo'yib ketmonni,
Ul ham sherik dehqoniga der: «Kulcha
Bo'lmasa ham zog'orangni olib kel,
Nari-beri choyni ichib tashlaylik.
Undan keyin jo'yak ochib boshlaylik,
Choydushga ham bir sigim choy solib kel».

Bir ozgina choy ichishib, dam olib,
Yana o'sha og'ir ishga tusharlar.
Shomga yaqin ishlaridan bo'sharlar
Va qaytarlar horib, charchab, sudralib.

Uzun qishni kitob bilan o'tkazgan —
O'qig'uvchi yosh o'rtoqlar, hormanglar!
Ko'ngillardan g'am va g'ashni ketkazgan
Bahor chog'i yattashdan ham qolmanglar!

1924

KO'KLAM KELADIRI

Ko'klam oyim yo'lga chiqqan, ko'klam oyim qo'zg'algan:
 Ko'k ko'ylakning bitishiga, uncha ko'p ham qolmagan!
 Tinig havo... Ko'k yuzinda oppoq, harir pardadek
 Oq bulutlar, unda-munda yoyilganlar parishon.
 Shu lalarning aksi bilan, yiltillagan ignadek,
 Kun tig'lar qarashlarga o'tkir-o'tkir sanchilgan.
 Qip-yalang'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,
 Ko'k ko'ylakning bitishini, chidamasdan kutalar.
 Qarg'alar ham qishda qilgan gunohlarin unutib,
 Uzi aytmasdan, indamasdan, uchib-uchib ketalar.
 Sezgilarni uyg'otuvchi hidli gullar to'planib:
 «Biz ham yo'lga chiqdik» deya yuborganlar bir chopar.
 Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar uyg'onib,
 Erta-indin bog'chalarga, chamanlarga tarqalar.
 Ko'klam oyining ipak ko'ylak etaklari sudralib,
 Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.
 U silashdan, u siypashdan quvvat olib, kuch olib,
 Qora yer ham ko'ksidagi olinlarni beradir.
 Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish kelsaydi,
 Ko'ngillar ham havolardek ko'klam hidi bersaydi,
 Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kirsaydi!..

1924

SOZIM

Naftrat o'lkasidan hijrat qilganman,
 Ulfat diyoriga maskan qurganman.
 Yuzimni o't emas, gulga burganman;
 Samoviy zavqlarga to'lib turganman
 Bulbullar sevgini maqtagan damdal
 Chechaklar o'sgusi ko'z yoshlarimdan,
 Bo'g'inlar ungusi o'ylashlarimdan,
 Qalblar yumshagusi sayrashlarimdan;
 Sevgi chamanida yayrashlarimdan
 Jannatlar yaratgay tashlangan jandal!
 Tilingan tillarga qon yugurgusi,
 Bo'shalgan inlarga jonlar kirgusi.
 Tikanli bog'chalar chechak ko'rgusi,
 Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi
 Jandalar jonimga tekkan kunlarda!..

1924

«BOYCHECHAK»

«Ko'klam qo'shiqlari» dan

«Boychechakning bolasi»

Ochdi yuzini;

Suvga chiqqan xolasi

Ko'rdi qizini!

«Boychechakning bolasi»

Yetimcha bir qiz...

Uning o'gay onasi,

Juda yomon, tez!

«Boychechakning bolasi»

Yulib olindi,

Yurtning ko'zi olasi

Juda sevindi!

«Boychechakning bolasi»

Har uyda kuldi,

Go'daklarning xaltasi

Non bilan to'ldi!..

1925



KUZ GULIGA

Rangi o'chgan,

Umri kechgan

Kuz guli,

Bu yo'li

Pastrak egil,

Menga bir o'pich bergil!

Burun yoz edi,

To'la noz edi,

Endi kuz keldi,

Qadding egildi,

Ranging so'lmogda

Yoshlar to'lmogda

G'amli ko'zingga;

So'lg'un yuzungga

Kimsa qaramay,

«Uzayin» demay...

O'tib ketmakedal!

Kuz yetilmakda,

Qishdan chopar bor,

Yomon xabar bor!..

Endi noz qilma,
Nozlanib kulma!
Kel, labimga kell

Bir ozroq egil,
Bir yayrab o'pay!
Shunda esirib,
Ruhingga kirib,
Ko'klamga yetay!..

1925



KO'KLAMDAN XABAR

Baqa sayrasa,
«Vaqqa-vaq» desa,
«Ko'klam qo'zg'oldi!»
Deb xabar bersa:
Shunda ham ko'nglim
Acha yayraydirl!
Na uchun yaproq,
Choyshab yopmaydir —
Tanlariga qon
To'lib qolsa ham,
Ko'kragiga jon
Kirib qolsa ham?
Ey, go'zal ko'klam,
Sudralma sen ham!
Yugurib, yelib,
Tezrak kelib,
O'pib ol bargni,
U erinchakni,
Ochsin ko'zini,
Alvon yuzini!..

1925

KO'KLAM YOMC'IRI

«Ko'klam qo'shiqlari» dan.

Uch kunlik yomg'ur
 To'xtadi bazo'r;
 Bulutlar ko'chdi.
 Kech kirgan choqda,
 Tol shoxlariga
 Shu'lalar tushdi...
 Havoning yuzi,
 Zaharli ko'zi
 Muloyimlashdi...
 Sharqning malagi —
 Nay kamalagi
 Ko'kka ulashdi...
 Tolda «chochpopuk»,
 Qiz ko'ngli «po'k-po'k»...
 Taqmoq istaydi.
 O'rtog'jonini
 Xayrixonini
 «Ha» deb qistaydi.
 Lekin shu'lalar
 Singib boralar...
 Ogshom «to'r» soldi.
 «Chochpopuk» taqish,
 Yigitga yozish
 Ertaga qoldi.

1925

GALDIR*

Men dutor bilan tug'ishgan, ko'lma bir devonaman,
 Ul tug'ishqonim bilan, bir o'tda, doim yonaman.

Dillarida g'am to'la bechoralarga yorman,
 Vaqti xush, g'am ko'rmaganlardan tamom bezorman.

Men dutorning torlariga berkinib olsam agar,
 Pardalarning har biri bergay bo'lak g'amdan xabar.

Pardalar uzra yurib turgan odam barmoqlari
 Ko'kragimdan ko'p bosar, shundan bo'lur tolmog'lari.

Ikki torni qaqshatib, barmoqlar o'tsa to'xtamay,
 G'amli un chiqmas o'shal torlarda «galdir» yig'lamay.

Yo'q ishim: hokim, amaldor, shohu xoqonlar bilan;
 Birgadurman doimo — hamdard bo'lganlar bilan!..

Ahli g'amlar, men kabi majnunsifat galdir bo'lar,
 Shul sababdan, bandaning nomini «galdir» qo'ydlar...

1925

* «Galdir» — 1) devona, telba, «parishonhol» odami; 2) bir kuy (mashq)ning ismi.

Bu she'r o'sha kuyga solilib va o'sha kuyning ismidan aytilgan. (Muallif izohi).

SUV

Suv:

Och, changoq yerni sug'organda,
Yering hansirab yotgan talabi qo'yniga

Yer ham uni qaqshagan lablari bilan
kinganda,

shimirganda,

Shimirib ichib qonganda,

— Indamaydi suv!

Tog'lardan yugurib,

chopib oqqanda,

Erkalik yoqqanda,

Bo'kirib,

O'zni har tomonga urib,

Kuylab,

So'ylab,

— Hech bir tinchlik bermaydi suv!

O'kirish,

G'alva — to'polon,

«Kamay-sunay, vadayang», *

— Qurug' savlati suvning!

Jingina,

* Aynan xalq so'zi.

Tingina,
Yer qo'yniga kirish,
Tuproqlarga singish,
Ehtiyojni yengish,
— Ulug' davlati suvning!..

1926



BAHORNİ SOG'INDIM...

Bahorni sog'indim, bahorni...
Ko'rganda yetar,

olanlar to'la gorni...

Qor... qor...

Zaharli ninalar kabi

Ko'zlarga qarab oqar...

Qayda sen, qayda sen

Latif siynalar kabi

Dillarga singgan bahor.

Dala-tuz, ekin-tikin...

G'amgin-g'amgin so'la boshladi.

Sarg'aygan yaproq,

Bo'yanib tuproq

O'la boshladi, o'la boshladi...

Yo'q... o'lim yo'qdir!

Yolg'iz bir uchib...

bir so'nish bordir!

Bir o'chib, so'nib...

yana yonish bor,

Yana bahorlar, yana lolalar,

Yana siz, ey, erkin dalalar!..

1926

KUZ YOMG'IRI

To'kildi tomchilar...

Yaproqning yuzlari

Tomchiga o'pirib

Ho'llandi...

Chuqurcha ko'llandi...

Tomchini ko'pirib

Betida o'ynatdi

Chuqurcha

U — jindak ko'лча...

Tomchilar — ko'klarining so'zlari

Yerlarni qamchilar!..

1926

MUNDARIJA

Go'zal.....	5
Qalamlar ishqı.....	7
Yong'in.....	7
Xalq.....	8
Suygan choqlarda.....	10
U yqu.....	11
Bnatla.....	12
Vıdon erki.....	13
Kıshan.....	15
Sendan yiroqla.....	16
Yupannıq ıstagi.....	17
Qısh oldıda.....	18
Yana Zarafshan.....	20
Kech kıtış.....	22
Men shımnı?.....	24
Qushnıng hıdđı.....	25
Subat.....	27
Buloqlar quchog'ıda.....	29
Istısh.....	30
Shafıolıga.....	31
Bahorda.....	32
Ko'klam keladı!.....	33
Sozin.....	34
«Boychıchak».....	35
Kuz gıllıga.....	36
Ko'klamdan xabar.....	37
Ko'klam yong'in.....	39
Caldır.....	40
Sıv.....	41
Bahorni sog'ındın.....	42
Kuz yong'in.....	44
Kuz yong'in.....	45

Adabiy-badiy nashr

CHO'LPON

BULOQLAR
QUCHOG'IDA

SHE'RLAR

Tahrıtyat mudırı Shoyın Bo'yayev

Muharrır Abdurrahmon Akbar

Rassom Shuhrat Odilov

Texnik muharrır Yelena Tolochko

Musahhib Shakhnoza Nabıxo'yayeva

Bosılıga ruizat etıldı 22. 08. 2007. Bıchımı 60×84/16. Shartlı bosma tabog'ı 2,79. Nashr bosma tabog'ı 1,27. Janı 500 nusxa. Shartnoma № 122–2007. Buyurtma № 23–2007. Bahası kelıhtılgan narsda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentlıgının Cho'lpón nomıdagi nashrıyat-matbaa ıpodıy ıyı texnik va dasturıy vosıtaları bazasıda çıop etıldı. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chası, 30-uy.

Yil va qishloq nomi

1901 yil

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

Qishloq nomi

84(5Y)6

Cl. 98

Cho'lon

Buloglar quchog'ida: She'rlar / Cho'lon; Mas'ul muharir
N. Karimov. - T.: Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2007. - 48 b.

BBK 84(5Y)6